



GLOBALLASHUV JARAYONIDA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING FAN, TA'LIM VA AMALIYOT BILAN INTEGRATSIYASI: YANGI YONDASHUVLAR, IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Azamatova Farangiz Nodirjon qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
xorijiy filologiya fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Globallashuv jarayonida tilshunoslik fanining rivojlanish tendensiyalari, ta'lim tizimida zamonaviy lingvistik yondashuvlarning qo'llanilishi va amaliy sohalar bilan integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt va kross-madaniy kommunikatsiya bilan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar hamda mavjud muammolar yoritiladi.*

Ka'lit so'zlari: *lingvistika, ta'lim, integratsiya, sun'iy intellekt, kommunikatsiya.*

XXI asrda globallashuv jarayonlari dunyoning barcha sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologiyalarni va boshqa sohalarni ham rivojlantira kelmoqda, shu bilan birgalikda tilni ham. Til – jamiyatning asosiy kommunikativ vositasi sifatida ushbu o'zgarishlardan eng ko'p ta'sirlanadigan ijtimoiy hodisalardan biridir. Til- eng asosiy obyektlaridan biri bo'lsa, tilshunoslik esa uning predmetidir.

Lingvistika termini faqatgina bir tilda emas, hozirgi vaqtda butun jahon: rus, ingliz, ispan va boshqa tillarda faol ishlatilib kelmoqda. Umuman bu so'zning o'zagi *lingua* - til deb tarjima qilinadi. Tilshunoslik va lingvistika so'zi biri biriga ma'no jihatidan yaqin, shu uchun bu terminlarni sinonimlar deb atashadi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtayi nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: dinamik lingvistika, statik lingvistika, sinxron lingvistika, diaxron lingvistika va intralingvistikalar mavjud.

1. Dinamik lingvistika. Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, kommunikativ jarayonda turlicha vazifalarni faol bajarishda, "taraqqiyotda", o'zgarishda tadqiq qiladi.

2. Statik lingvistika. Statik lingvistika til faoliyatidagi to'liq sinxronlashgan muayyan bir davrni (bo'lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o'zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi – zamonaviy davri bilan bog'liq ma'lum bir "qotgan" qismini holatini tekshiradi.

3. Sinxron lingvistika. Sinxron lingvistika statik va struktural lingvistika bilan



uzviy bog‘liq bo‘lib, tilning ma‘lum bir davrdagi “qotgan”, “turg‘un” holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

4. Diaxron lingvistika. Diaxron lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlari hamda natijalarini o‘rganadi.

5. Intralingvistika (ichki lingvistika). Ichki lingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini ekstralingvistik faktorlarga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘rganadi. Ichki lingvistikaning tadqiqot manbai bo‘lib fonologiya, leksikologiya va grammatika hisoblanadi.

Barcha tillarning umumiy belgilarini ham empirik (induktiv), ham deduktiv yo‘l bilan o‘rganadi; tilning ishlash umumiy tendensiyalarini tadqiq etadi, tahlil usullarini ishlab chiqadi va lingvistik tushunchalarning ta‘rifini beradi. Umumiy lingvistikaning tarkibiy qismi — lingvistik tipologiya, u tillarni qarindoshlik darajasidan qat‘i nazar qiyoslaydi. Tipologiya til universalialarini — dunyodagi ko‘pchilik tavsiflangan tillar uchun bajariladigan gipotezalarni aniqlaydi va formulalaydi.

Tilshunoslikning rivojlanishida va uning turli yo‘nalishlarida bir qancha mashhur olimlar va ularning nazariyalari muhim ahamiyatga ega. Ularning fikrlari tilshunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan: Ferdinand de Saussure (1857–1913). Saussure — strukturalizmning asoschisi va zamonaviy tilshunoslikning ota-onasi hisoblanadi. Uning fikricha, til — bu “belgilar tizimi” bo‘lib, uning tarkibi “bilgivistik” (so‘zlar) va “signifikatsiya” (ma‘no)dan iborat.

Roman Jakobson (1896–1982). Jakobson strukturalizmning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan va tilshunoslikni lingvistik, psixologik va sotsiologik nuqtai nazarlardan o‘rganishga harakat qilgan.

Mikhail Bakhtin (1895–1975). Bakhtin tilshunoslik va adabiyotshunoslikda diskurs tahlilining muhim namoyandasi bo‘lgan. U tilni faqat grammatik yoki sintaktik struktura sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida ko‘rgan.

Globallashuv sharoitida zamonaviy tilshunoslikning fan, ta‘lim va amaliyot bilan integratsiyasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va madaniyatlararo kommunikatsiya tilshunoslik oldiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda, milliy tilning saqlanishi, ta‘lim sifatining barqarorligini ta‘minlash, metodologik yondashuvlarni takomillashtirish kabi muammolar ham mavjud. Shunday ekan, zamonaviy tilshunoslikning integratsion rivojlanishi izchil ilmiy tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlar bilan mustahkamlanishi zarur.

Integratsiya deganda biz nima tushunamiz? Bu turli qismlarning bir butunlikni hosil qilish uchun birlashishi va o‘zaro bog‘lanishi jarayonidir. Bu tushuncha iqtisodiy integratsiya (davlatlar iqtisodiyotini birlashtirish), ijtimoiy integratsiya (jamiyatga yangi kelganlarning qo‘shilishi) va fanlar integratsiyasi (turli fanlarning bir-biriga yaqinlashishi) kabi sohalarda qo‘llanadi. Biz fanlar intergatsiyasini ko‘rib chiqamiz.





Fanlar integratsiyasi: Turli fanlarning yaqinlashuvi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni. Bu differentsiatsiya (ilmiy tushunchalarning farqlanishi) bilan parallel ravishda amalga oshadi. Tillarning bir biriga yaqinligi shundagi, ularni qonun qoidalari, yozilish shakllari boshqa tillar bilan yaqin bo‘lishi mumkin. Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish, mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tadbqiq etilishini ta‘minlaydi.

Tilshunoslik bilan shug‘ullangan har bir izlanuvchi tilning doimiy rivojlanish jarayonini, yangi imkoniyatlarning paydo bo‘layotganini ko‘rish mumkin. Til hech qachon bir holatda qolmaydi: u har kuni yangi terminlar, qoidalar va nazariyalar bilan boyib boradi. Qadimiy allomalar aytganidek, “Izlagan sari yangi bilim va ko‘nikmalar topiladi”. Shu sababli tilga doir yangi yondashuvlar va amaliy ko‘nikmalar qisqa vaqt ichida shakllanishi tabiiydir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi, T., 2002. 132-bet.
2. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. “Tilshunoslikdan umumiy ma’lumot” bobi. -T.,1978. 233-bet.
3. R.Rasulov. Umumiy tilshunoslik (oliy ta’lim muassasalkarining bakalavriat talabalari uchun darslik). Toshkent – 2012.
4. Shayxislamov N. (2021). Jahon lingvistik ekspertologiyasida tarkibiy qismlar masalasining o‘rganilishi. Scientific progress, 2(5), 333-337.